



ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2024

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Аликариев Нуриддин МАТЕМАТИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВОУ.....	5
2. Abduraxmonova Manzura, Akramov Davronbek XAVF GURUHIDAGI OILA FARZANGLARINI IJTIMOYILASHUVIDA MAKTAB VA MAHALLA IJTIMOYIY XODIMINING HAMKORLIGI.....	12
3. Сейтова Зухрагон ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ В СОЦИОЛОГИИ.....	21
4. Tagieva Gulsum NOGIRONLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISHDA IJTIMOYIY TA'MINOTNING O'RNI.....	28
5. Kayumov Kaxramon HOZIRGI DAVRDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOYIY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	36
6. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA ALGORITMIK YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	43
7. Mahammadjanov G'olibjon СОЦИОЛОГИК ТАЪЛИМОТЛАРДА ИЖТИМОЙИЙ ОНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИГА ОИД ПАРАДИГМАЛАР ТАЪЛИЛИ.....	51
8. Masharipov Baxtiyor SHAHAR EKOTIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI INNOVASION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOYIY ZARURATI.....	57
9. Gaibnazarov Boxodir SOTSIAL BOSHQARUV TIZIMINING SAMARADORLIGI: XORIJIY TAJRIBA.....	66
10. Ixtiyarov Farxod DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	73
11. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA IJTIMOYIY ISH KADRLARINI TAYYORLASH JARAYONLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	83
12. Akhmedova Rano WELFARE AS A MEASURE OF LIFE SATISFACTION.....	90

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Mahammadjanov G'Olibjon,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ma'sul xodimi,

siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (Phd)

e-mail: galibmahamadzanov@gmail.com

СОЦИОЛОГИК ТАЪЛИМОТЛАРДА ИЖТИМОЙ ОНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИГА ОИД ПАРАДИГМАЛАР ТАҲЛИЛИ

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.13341874>

ANNOTATSIYA

Maqolada ijtimoiy ong va uning asosiy shakllarining transformatsiyalashuvi ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va boshqaruvni tashkil etishda xalqchil, zamonaviy mexanizmlarini qo'llash hamda undan foydalanish imkoniyatiga bog'liq bo'lsht, va shunda "ommaviy begonalashuvsiz" kechishi masalalari sotsiologik jihatdan tadqiqi etilgan. Shu bilan birga, yangi jamiyatlar uchun ijtimoiy institutlar transformatsiyasi boshqa siyosiy o'zgarishlardan kam bo'lmagan mas'uliyatga ega ekanligi, shuning uchun ijtimoiy institutlarning, xususan, ijtimoiy ongning transformatsiyasi omillarini o'rganish va shu asosda takomillashtirish Yangi O'zbekistonda yangi ijtimoiy munosabatlar tizimi rivojiga katta ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan tadqiqi etilgan. Qolaversa, fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlarda ishtiroki darajasi kengayishi, fuqarolik pozitsiyasi (ijtimoiy ongning asosiy motivi) mustahkamlanishi omillari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlar, strategiya, ijtimoiy davlat, strategiya, modernizatsiya, ijtimoiy ong, tafakur, ijtimoiy ong shakllari, sotsiologik tahlil, ijtimoiy tizimlar, ijtimoiy institutlar, transformatsiya, davlat, jamiyat, fuqarolar, sinergetika, evolyutsiya.

Махаммаджанов Голибжон,

Руководитель отдела социально-правового медиацентра

Олий Мажлис Республикаси Узбекистан,

доктор философии по политическим наукам (PhD)

e-mail: galibmahamadzanov@gmail.com

АНАЛИЗ ПАРАДИГМ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСФОРМАЦИЕЙ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ УЧЕНИЯХ

АННОТАЦИЯ

В статье изучается трансформация общественного сознания и его основных форм, которая обусловлена возможностью применения и использования ими современных механизмов организации общественно-политических отношений и управления без "массового отчуждения". В статье научно доказывается, что трансформация социальных институтов имеет не менее значение, чем политические реформы, поэтому изучение и совершенствование на этой основе факторов трансформации социальных институтов, в

частности общественного сознания, оказывает большое влияние на развитие новой системы общественных отношений в новом Узбекистане. Кроме того, в статье также выявлены факторы расширения уровня участия граждан в социальных, политических, духовных отношениях, укрепления гражданской позиции (основного мотива общественного сознания).

Ключевые слова: социальные, политические, духовные отношения, стратегия, социальное государство, стратегия, модернизация, общественное сознание, мышление, формы общественного сознания, социологический анализ, социальные системы, социальные институты, трансформация, государство, общество, граждане, синергетика, эволюция.

Mahammadzhanov Galibjon,

Head of Department of Social Legal Media Center of
Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in Political Science (PhD)
e-mail: galibmahamadzanov@gmail.com

ANALYSIS OF PARADIGMS RELATED TO THE TRANSFORMATION OF SOCIAL CONSCIOUSNESS IN SOCIOLOGICAL TEACHINGS

ABSTRACT

The article studies the transformation of public consciousness and its main forms, which is due to the possibility of applying and using modern mechanisms for organizing socio-political relations and management without “mass alienation”. The article scientifically proves that the transformation of social institutions is no less important than political reforms, therefore, the study and improvement on this basis of the factors of transformation of social institutions, in particular public consciousness, has a great influence on the development of a new system of social relations in the new Uzbekistan. In addition, the article also identifies factors for expanding the level of citizen participation in social, political, spiritual relations, strengthening the civic position (the main motive of public consciousness).

Key words: social, political, spiritual relations, strategy, social state, strategy, modernization, social consciousness, thinking, forms of social consciousness, sociological analysis, social systems, social institutions, transformation, state, society, citizens, synergetics, evolution.

KIRISH

2016-2022-yillarda mamlakatimiz ijtimoiy hayotida amalga oshirilgan o'zgarishlar, islohotlar, jumladan, ijtimoiy institutlar bilan birga, aholining ijtimoiy ongida sodir bo'layotgan transformatsiya jarayonlariga doir tub islohotlarning dinamikasi ochib berilgan. Yangi jamiyat barpo etish davomida zamonaviy ijtimoiy institutlarning transformatsiyalashuvi holati hamda ushbu ijtimoiy ahamiyatga ega tendensiyaning ilmiy va amaliy xususiyatlariga asosiy e'tibor qaratilgan.

Xususan, 2017-yildan boshlab davlat boshqaruvini isloh qilish bilan bog'liq qabul qilingan strategiya doirasidagi islohotlarning yangi jarayonlarda, fuqarolarning ijtimoiy munosabatlarida, mamlakat taraqqiyotidagi o'rni va rolining mohiyati ochib berilgan. Shu maqsadda «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» hamda 2022-yil 29-yanvarda qabul qilingan «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da nazarda tutilgan jamiyatning va uning ijtimoiy institutlarining faoliyati asosida ijtimoiy ong o'zgarishlar, sinergetik yondashuvlar, ularning yangilanishi jarayoni murakkabligi hamda buning samaradorligini oshirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Shu bilan bir qatorda, so'nggi yillarda O'zbekistonda sodir bo'layotgan ijtimoiy institutlarning modernizatsiyalashuv hamda transformatsiyalashuv bilan bog'liq islohotlarning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarining takomilidagi o'rni va roli masalasi, ayniqsa, ijtimoiy ong shakllarining transformatsiyalashuvi, unda fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki, O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida ijtimoiy va dunyoviy davlat konsepsiyasining zaruriyati,

uni amalga oshirishda ijtimoiy institutlarning ishtiroki xususiyatlari, shuningdek, ularning zamonaviy munosabatlarga qanchalik moslashuvchanligining asosiy mexanizmlari, sinergetik yondashuvlarning ahamiyati mazkur bobning asosiy tadqiqot obyektini tashkil etgan.

Yangi O'zbekistonni barpo etish asosida jamiyatning ijtimoiy institutlarni takomilini yangi bosqichga ko'tarish, ularning faoliyatini yanada rivojlantirishning yangi tendensiyalari hamda "O'zbekiston-2030" strategiyasining asosiy maqsadlarini amalga oshirishda ijtimoiy institutlardan foydalanish hamda jamiyatda ijtimoiy ong transformatsiyasi istiqbollari yuzasidan tegishli xulosalar ilgari surilgan.

METODOLOGIYA

XX asrning boshlariga kelib, dunyodagi voqea-hodisalar, aholi va davlat o'rtasidagi munosabatlarda yangicha, postneoklassik paradigmalar shakllana boshladi [1, – C.707]. Ushbu paradigmanning tarkibiy qismini madaniy-falsafiy qadriyatlar bilan birga, tizimli yondashuvning asosiy mahsuli bo'lgan sinergetik yondashuv ham tashkil etadi.

Sotsiologiya fani doirasida ushbu tadqiqot uslubining qo'llash fuqarolarning hatti-harakatlari, uning motsivlarini aniqlash, ongli va ongsiz tarzda harakatlarini aniqlash orqali ijtimoiy sotsiumning boshqarishning samarali yo'llarini aniqlashda katta hamiyat kasb etadi.

Aynan sinergetik yondashuvning ijtimoiy ong va uning istiqboldagi taraqqiyotidagi o'rni bugungi jamiyatlarda qanday ahamiyatga ega? Mana shu yondashuv tadqiqot ishimizda asosiy masalani tashkil qiladi. Sinergetika murakkab tizimlarni o'rganishda qo'llaniladigan uslub bo'lib, uning mazmunini tabiatdan jamiyat tashkil topgunga qadar, shuningdek, insonlar jamoasiga bo'lgan nochiziqli, muvozanatsiz jarayonlarning o'rganishning ilmiy yondashuvi hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Har bir davlat ijtimoiy ong darajasining unda demokratik tamoyillarni mavjudligining asosiy belgilaridan biridir.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida bu jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan holda aholining asosiy qadriyatlarini o'z ichiga oluvchi institutlarning, ijtimoiy ong darajasi va shakllarining rivojlanishiga (yangilanishi, transformatsiyasi) katta e'tibor berilishi nazarda tutilgan. Ammo masalaning aynan moslashuvchanligiga alohida ahamiyat berish lozim.

U qachonki uzoq muddat davomida, muayyan hudud va davlat fuqarolarining manfaatlari, ijtimoiy ong, madaniyati darajasi hamda mavjud an'anaviy boshqaruvga xos qonuniyatlari bilan birga kechsa, uni hisobga olish katta yutuqlar belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Fikrimizcha, zamonaviylashuv jarayoni har bir jamiyatda yangicha qarashlarning shakllanishiga doir ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) tendensiyani keltirib chiqaradi. Bu jarayon, avvalo, uning ijtimoiy munosabatlarida, boshqaruvning o'zgarishida, avvalo, ijtimoiy ongning transformatsiyalashuvi asosida kechadi.

Zamonaviy adabiyotlarda ijtimoiy ongning transformatsiyasida sinergetik yondashuvning ahamiyati avvalo, o'zgaruvchan xususiyatga ega jarayonlar (an'analar, qadriyatlar, o'zaro aloqalar va hok) bilan bog'liq hisoblanadi va ularni fraktallar deb nomlanadi [2, – C.234].

Sotsiologik adabiyotlarda, ayniqsa, ijtimoiy ong transformatsiyasida fraktal tushunchasiining qo'llanilishining asosiy sababalaridan biri ushbu jarayon ham doimiy o'zgarishlarga moyil ekanligi, doimiy boshqa jarayonlarga o'tish bosqichiga yaqinroq turish bilan ifodalanadi (matriarxatdan patriarxatga o'tilishi, an'anaviylikdan zamonaviylikka o'tilishi).

Ijtimoiy ongning o'zgaruvchanligida sotsiumning ahamiyati alohida kasb etadi. Chunki, insonlarning o'zlarining ehtiyojlari orqali (sun'iy bo'lishi mumkin) yangi jarayonlarga kirishi, tanlashi, qabul qilishi (doimiy dushman izlash, ksenofobiya, paternalizm) asosida keyingi bochqichga o'tadi yoki o'tmaydi.

Ijtimoiy ong transformatsiyalashuvi ijobiy jarayon bo'lishi bilan bir qatorda salbiy ahamiyat kasb etishi ham tez sodir bo'lishi mumkin. Ijtimoiy ongning holatidagi eng salbiy jarayonlardan biri izolyatsionizm, ya'ni bir maydon ortida qolish hisoblanadi [3, – C.134].

Fikrimizcha, ma'lum bir hududdagi mavjud qadriyatlar, ijtimoiy ong shakllarining yangiliklarga bo'lgan munosabatini yoki o'zgarishlarning bu ijtimoiy munosabatlarga ta'sir darajasini bilish maqsadga muvofiq.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyatlarning bosqichma-bosqich taraqqiyoti davomida, o'ziga xos, o'zgaruvchan, o'suvchan, xususiyatlarga ega holda rivojlanadi.

Transformatsiya jarayonida javmitya va davlat boshiaruvida strukturasiidagi o'zgarishlar avvalo, uning a'zolarining ijtimoiy ongida o'zgarishlarning yasaydi va obyektiv tendensiya sifatida odatda qabul qilinadi. Bu jarayonda fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarga ta'siri darajasi doimiy o'rganishlarni talab etadi. Bu jarayonda ijtimoiy ongda ijobiy ongda ijobiylik xususiyatlarini aniqlash alohida ahamiyat kase etadi.

Fikrimizcha, globallashuv va axborotlashuv davrida ijtimoiy ong va uning mavjud shakllarini saqlab qolish, rivojlantirish, yangi munosabatlariga transformatsiyalashuvini o'ragnish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda, bu jarayon davlat va jamiyatning istiqbolini belgilovchi asosiy omil sifatida qarash ham to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri natijasi ijtimoiy ongning "jarohatlanish" holati kuzatilmoqda, bu o'z navbatida transformatsiya jarayonlari yo'nalishlarini boshqa holatda bo'lishiga olib kelmoqda.

Zamonaviylik munosabatlari kirib kelayotgan jamiyatlarda transformatsiyalashuv albatta ertami kechmi sodir bo'ladi. Bu avvalo shu jamiyatdagi hukumron bo'lgan ijtimoiy ong shakllari hamda uning tashuvchilari bo'lmish insonlarning hatti-harakatlari, ijtimoiy ehtiyojlari alohida o'rin egallaydi.

Ijtimoiy ong va uning shakllari aslida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning doimiylikini ko'rsatib beruvchi indikator hisoblanadi. Jamiyat o'zida murakkab tizimni tashkil etadi, ayniqsa globallashuv va axborotlashuv bunda o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunda ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy munosabatlarda ijtimoiy ong va uning o'zgaruvchanligi yakdilligi muhim hisoblanadi. Ijtimoiy ong darajasining o'zgarishi (transformatsiya) ga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sotsiologik nuqtayi nazardan ikki ta'jihat bilan ifodalanadi: birinchidan uning subyektivizm bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan u inson omilisiz bo'lmasligi bilan bog'liq [4, – C.45]. Ilmiy adabiyotlarda jamiyatda ijtimoiy ong shakllari tizimida o'zgarishlarning umumiy tendensiyasini quyidagi jihatlariga qarab o'rganish mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- ijtimoiy ong va uning shakllarining umumiy xarakteristikasi;
- jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning moslashuvchanliginida ijtimoiy ong darajasining o'rni va roli;
- ijtimoiy ong tartib qoidalari va nomalarining rivojlanishi dinamikasi;
- jamiyatdagi ijtimoiy tartib-qoidalar rivojining paradigmalari;
- ijtimoiy munosabatlarda axborot texnologiyalarining ta'siri darajasi;
- ijtimoiy ong va uning shakllarining uning a'zolariga ta'siri holati;
- ijtimoiy ong shakllarining tabiiy va boshqariladigan mexanizmlari;
- jamiyatdagi destruktiv axborot faktorlarining ta'siri, uni paydo bo'lish motivlari, ularga qarshi kurashish omillari;
- zamonaviylashuv sharoitida jamiyat va davlatlarda axborot xavfsizligi, unga qarshi turish tizimining mavjudligi-bu zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy ong va uning tizimining doimiy o'rganishni talab qiladigan jihati hisoblanadi.

Fikrimizcha, axborotlashuv va zamonaviylik jarayonlarining qo'shib ketishi tendensiyasi davrida bu omil zamonoviylikka qadam qo'yayotgan yoki o'tgan jamiyatlarda asosiy ijtimoiy ongning o'zgarishini belgilab beruvchi omillardan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Ta'kidlaganimizdek, an'ana va qadriyatlar ijtimoiy ongning muhim shakli sifatida aholining, turli ijtimoiy qatlamlarning kundalik hayotidan tortib, boshqa turdagi ijtimoiy munosabatlariga jiddiy ham ijobiy, ayni vaqtda salbiy ta'sir ko'rsatishini doimiy ravishda hisobga olish maqsadga muvofiq. Bu transformatsiyalashuv jarayonida davlatlar va jamiyatlar uchun birdek ahamiyatli hisoblanadi. Chunki transformatsiyalashuv jarayonida jamiyatning avvalo, ijtimoiy munosabatlarida keskin o'zgarishlar kuzatiladi. Yangi munosabatlarga kirishish o'z navbatida ijtimoiy ong shakllarida ham o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ularning transformatsiyalashuvi yuqoridagi ijtimoiy, siyosiy, ma'anaviy jarayonlarda alohida ta'sirga ega. Xususan, bunda ular aholining ijtimoiy faolligini oshirgan holda, davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Buni AQSHda faoliyat ko'rsatayotgan Gellap instituti deb nom olgan ijtimoiy

fikrni o'rganish markazi tomonidan «Xalq hukumat ovozi indeksi» degan mavzuda 2017 yilda o'tkazilgan va e'lon qilingan tadqiqot materiallarida ijtimoiy institutlar, ijtimoiy ong darajasining mustahkamligi holati davlatlarning demokratiya indeksidagi o'rni bo'yicha natijalari tasdiqlaydi [4, – C.45].

Fikrimizcha, ijtimoiy ong darajasidagi transformatsiya jarayonlari barcha davlatlarda bir xil kechmaydi. Ushbu jarayonlar davlatlarning taraqqiyot tagzaminlari, an'analari, g'oya va mafkuralari, shuningdek, turmush tarzi sharoitlariga mos ravishda kechishi maqsadga muvofiq.

Bizningcha, transformatsiyalashuv asosida avvalo ijtimoiy institutlarning zamonaviy munosabatlarga o'tish jarayoni amalga oshmas ekan, bu samarasiz jarayon bo'lib, ijtimoiy tarangliklarni keltirib chiqarish tabiiy. Bunda har qanday boshqaruv, avvalo, fuqarolar manfaatlariga xizmat qilish orqali kechishi lozim, shunda ijtimoiy ong va uning shakllarida kuzatiladigan transformatsiyalashuv shu jamiyat, davlatda ixtiloflarsiz kuzatiladi.

Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy onging transformatsiyalashuvi jamiyatdagi modernizatsiyalashuv bir chiziqda rivojlanishini ta'minlashda yetakchilik qiladi. Xususan, yosh olim B.Berdiyevning fikricha, yangilanayotgan jamiyatlarda uning sodir bo'lishi bilan bog'liq bir qancha omillar, sabablar barobarida, avvalo, shu jamiyat siyosiy institutlarining faoliyat yo'nalishlarida o'zarishlar (transformatsiyalashib borishi) asosiy o'rinni egallashi lozimligini ko'rsatib o'tadi [6, – C.94].

O'zbekistonning yangicha pozitsiyada rivojlanishiga oid Taraqqiyot strategiyasining asosiy mazmun-mohiyati ham jamiyatda ijtimoiy institutlar faoliyatini yanada mustahkamlash omillarini rivojlantirishga qaratilgani bejiz emas. Bunda, birinchi galda, Taraqqiyot strategiyasining birinchi va asosiy yo'nalishi va maqsadlarida jamiyat ijtimoiy, siyosiy institutlarining faoliyatini takomillashtirish (transformatsiyalashuvi) asosida inson omilini(ularning ijtimoiy onging darajasi, qarashlari, moyilligi) yuqori o'ringa qo'yuvchi tizimni, boshqaruvni mustahkamlash hamda fuqarolik jamiyatini qurish vazifasini jadallashtirishni ko'rsatib o'tildi [7, – C.47].

Fikrimizcha, sodir bo'ladigan o'zgarishlarning jamiyatning ijtimoiy institutlari tomonidan qabul qilinmasligi yoki anglanmasligi, xususan, yangi ijtimoiy jarayonlarga moslashmasligi, transformatsiyalashmagani jamiyatda modernizatsiyaning qisman ko'rinishi (ma'lum bir sohalarida) rivojlanishiga olib keladi, bunda davlat va jamiyat a'zolari o'rtasida keskin farqlanish, ijtimoiy begonalashuv holati yuzaga keladi.

Xususan, A.Qodirovning fikricha, «Kishilar xatti-harakatida tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib mustahkamlangan paternalizm (kattalarga so'zsiz hurmat va ular fikrlarini doimo qabul qilish) an'analari jamiyatda demokratiya tamoyillari qaror topishiga, uning zamonaviylashuviga to'sqinlik qiladi» [8, – C.47].

Shu bois, fikrimizcha, har qanday davlat va jamiyatda amalga oshiralayotgan islohotlarning negizida aholining, turli qatlamlar, guruhlarning manfaatlarining hisobga olish tendensiyasini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar holati, o'z navbatida, ana'anaviy kuch va imkoniyatga ega bo'lgan institutlarning kuchsizlayotganini, ularga bo'lgan e'tiborning sesayayotganligini ko'rsatmoqda. Bu jarayonlar o'z navbatida davlatning asosiy tarmog'i hisoblangan ijtimoiy soha fonida siyosiy boshqaruvining ham imkoniyatlarini cheklamoqda. Bunday holatlarning asosiy omillaridan biri – jamiyatdagi ijtimoiy ong darajasida o'zgarishlarning bir xil yo'nalishda emasligi natijasida har bir sotsiumga ta'siri darajasi bilan bog'liqdir.

Ammo yangilanayotgan jamiyatda ushbu jihatlarga har doim «yot unsurlar» sifatida emas, balki o'ziga xos rivojlanish va taraqqiyotning asosiy manbasi sifatida mavjud ijtimoiy institutlarni takomillashtirish, ularning yangi munosabatlarga transformatsiyalashuvi holati, bunda shakllangan ijtimoiy onging darajasi o'zgarishi, ta'siri, darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. «Yangi boshqaruv yangicha boshqaruv vazifalari va ularni amalga oshirishga xizmat qiluvchi yangi boshqaruv tizimlari paydo bo'lishi bilan izohlanadi» [9, – C.53].

Yuqorida aytganimizdek, ijtimoiy ong darajasining shakllanishiga, o'zgarishiga (transformatsiya jarayonlari) jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy sohadagi islohotlar katta rol o'ynaydi.

Jamiyatda insonlarning munosabatlari oddiy shaxsdan tortib, katta jamoalargacha bo'lgan munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bunda ularning ratsional va irratsional hatti-harakatlarini shu jamiyatda o'rnatilgan qoidalar asosida takomillashtirib boradi [10, – С.11].

Ijtimoiy institutlarni yangilash (1), ularning jamiyatda faolligini oshirish (2), ularning transformatsiyalashuvini monitoring qilish (3), yangicha ijtimoiy munosabatatlarning mustahkamlashda ijtimoiy ong va uning shakllari rolini oshirish mexanizmlarini tadqiq etish (4) davlatva uning fuqarolarining ijtimoiy faolligi, avvalo, siyosiy tizimning barqaror faoliyati uchun muhim va asosiy omillardan biri hisoblanadi. Agar o'zgarishlar jamiyatda ijtimoiy ong shakllarida o'z ifodasini topmasa, bu islohotlarning samaradorligi sezilmaydi. Bu jarayon yangi demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, tadqiq etilayotgan davr mobaynida ijtimoiy institutlar tizimida ro'y bergan o'zgarishlar va islohotlar jamiyatda ijtimoiy ong (fuqarolarning faolligini oshirish fonida) transformatsiyasiga nisbatan davlat siyosatining asosiy va muhim yo'nalishini tashkil etmoqda.

Ijtimoiy institutlar transformatsiyasi bilan bog'liq paradigmalarning tahlili asosida quyidagilar xulosalarga kelish mumkin:

birinchidan, Yangi O'zbekistonda ijtimoiy institutlarning transformatsiyalashuvi jarayonlari, avvalo, jamiyatdagi boshqaruv hamda unda fuqarolarning ishtiroki ko'lamiga bog'liq ravishda amalga oshishi – ijtimoiy barqarorlikning asosi bo'lib xizmat qiladi;

ikkinchidan, ijtimoiy onging transformatsiyalashuvi fuqarolarning manfaatlarini ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda hisobga olish tendensiyasi bilan birgalikda kechishi lozim;

uchinchidan, ijtimoiy ong va uning asosiy shakllarining transformatsiyalashuvi ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlari va boshqaruvni tashkil etishda xalqchil, zamonaviy mexanizmlarini qo'llash hamda undan foydalanish imkoniyatiga bog'liq bo'ladi va shunda "ommaviy begonalashuvsiz" kechadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Можейко М.А. Синергетика. URL: [http:// slovari. yandex. ru/ dict/ phil_ dict/article/ filo /filo-707](http://slovari.yandex.ru/dict/phil_dict/article/filo/filo-707)
2. Гулевич О. А. Концепции и методы изучения сознания на уровне больших групп. URL: <http://www.psychology.ru/lomonosov/tesises/eu.htm>
3. Дилигенский Г.Г. Российский горожанин конца девяностых: генезис постсоветского сознания (Социально-психологическое исследование). – М. : ИМЭМО, 1998. 134 с.
4. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. - М., «Медиум», 1995. – С.45
5. <https://www.gallup-international.com/survey-results/survey-result/voice-of-the-people-government-index>.
6. Бердиев Б. Ўзбекистонда сиёсий модернизация жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (Phd) даражасини олиш учун тайёрланган дисс. – Т.: 2019. – Б. 94.
7. Ш.Мирзиёев Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т., Ўзбекистон. – Б. 47.
8. Қодиров А. Анъанавий жамият ва уни модернизациялаштириш стратегияси. – Т.:ТДЮИ нашриёти, 2006. – Б. 19.
9. Хантингтон С. Политический порядок в меняющихся обществах. – М.: Прогресс-Традиция, 2004. – С. 52.
10. Антипов М.А., Дорошин Б.А. Сетевое общество как феномен постсовременности // XXI век: итоги прошлого и проблемы настоящего плюс. 2012. № 3 (7). – С. 11–18.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000